

## O'ZBEKISTONDA BOLA HUQUQLARIGA BO'LGAN E'TIBOR VA ULARNING HUQUQIY MUHOFAZASI

**Ubaydullayev Saydullo Abdulkaxxor o'g'li**

*Oltinko'l tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi*

*Telefon: +998(93)6902900 Andijon, O'zbekiston s.a.ubaydullayev@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Maqolada O'zbekiston Respublikasida bola huquqlariga bo'lgan e'tibor, ularning huquqlarini har tomonlama ta'minlash, yosh avlodni erkin, demokratik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, komil inson qilib o'stirish, huquq va erkinliklarini himoya qilish, fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik, huquqiy davlatni qurish, bola huquqlarini himoya qilishning xalqaro va milliy huquqiy asoslari va mexanizmlarini yaratish, barcha demokratik davlatlardagi kabi bola huquqlariga bo'lgan e'tibor va ularning milliy qonunchiligimizdagi huquqiy muhofazasi borasidagi amalga oshirilgan islohatlar haqida batafsil ma'lumotlar bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *bola huquqlari tushunchasi, bola huquqlarining fundamental asoslari, bolaning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi, bola huquqlarini ta'minlash, bola huquqlariga oid davlat siyosati.*

Qaysi bir mamlakat bo'lmasin, agar unda bolalarning shodon kulgulari yangrab tursa, bu yurtning buguni ham, ertasi ham, albatta, porloq bo'ladi. Zero, bugun dunyoning deyarli barcha hududlarida siyosiy tanglik, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik davom etayotgan bir vaziyatda u yerdagi bolalarning taqdiri, huquq va erkinliklari haqida chuqurroq o'ylasak, bugungi kunda bola huquqlari himoyasi masalasining dolzarbligini va ahamiyatini his etish mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda yosh avlodni erkin, demokratik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni komil inson qilib o'stirish, huquq va erkinliklarini himoya qilish va ta'minlab berish fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik, huquqiy davlatni qurishni o'z oldiga maqsad qilib olgan har bir jamiyat uchun juda ham muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Barcha demokratik davlatlar kabi, mazkur masala, ya'ni yosh avlodni tarbiyalash, bola huquqlari sohasidagi huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayoni, O'zbekiston uchun ham juda ahamiyatli hisoblanadi.

Mamlakatda bola huquqlarini ta'minlash va ularni har tomonlama himoya qilish uchun maxsus huquqiy baza shakllangan desak, adashmagan bo'lamiz. Jumladan, mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, davlat siyosatining ustuvor yo'nalish sifatida katta e'tibor qaratib kelingan. Xususan 1991-yilning 20-noyabrida, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi maxsus qonuni qabul qilinganligi bunga dalolat bo'la oladi. Mazkur Qonunda yoshlarga oid siyosatning maqsadi, O'zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari, yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunlarning mazmun-mohiyati qanday bo'lishi lozimligi, bu boradagi O'zbekiston

Respublikasining xalqaro shartnomalari normalarining ustuvorligi tamoyili ko'rsatib o'tilgan.

Mustaqil O'zbekistonimiz 1992-yili BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasini ratifikatsiya qilishi bilan jamiyatimizda bola huquqlari naqadar, dolzarb masala ekanligini xalqaro miqyosda e'tirof etdi.<sup>1</sup> Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada to'rt asosiy yo'nalish belgilangan bo'lib, bular yashash, rivojlanish, himoyalash hamda bolalarning o'zlariga bevosita tegishli qaror qabul qilinishida qatnashish huquqlarini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Mazkur yo'nalishlarda qayd etilgan talablarning barchasiga amal qilish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddalari bilan mustahkamlangan. Xususan, bosh qomusimizda XIV bobi "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlanib, 77-moddasida "Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi", 78-moddasida esa "Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi" degan norma mustahkamlangan.<sup>2</sup>

Aytish joizki, bugungi kungacha mamlakatimiz 70 dan ortiq inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarga qo'shilgan. Mazkur xalqaro huquqiy hujjatlar orasida bola huquqlariga oid xalqaro normalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60-yilligi mamlakatimizda keng nishonlangan 2008-yilda O'zbekiston parlamenti bola huquqlariga taalluqli quyidagi muhim xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qildi:

- ❖ Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi XMTning konvensiyasini;
- ❖ Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va tugatishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi XMTning konvensiyasini;
- ❖ Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini (Nyu-York, 2000-yil 15-noyabr) to'ldiruvchi odam savdosining,

<sup>1</sup> Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar (jami). - T.: "Adolat", 2004 y.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023 yil, – 80 b.

ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqidagi protokolini;

❖ Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ protokolni;

❖ Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir, bolalarning qurolli mojaralarda ishtirokiga taalluqli Fakultativ protokolni.<sup>3</sup>

Ayni chog'da mamlakatimiz bolalar manfaatlari va huquqlarini himoya qilishga doir barcha asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shilgan. BMTning "Balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari" (Pekin qoidalari, 1985 yil) hamda "Voyaga etmaganlar o'rtasida jinoyatlarning oldini olish uchun bosh tamoyillari" (Ar-Riyod bosh tamoyillari, 1990 yil) shular jumlasidandir.

Bola huquqlariga oid xalqaro hujjatlar o'z navbatida milliy qonunchilikni takomillashtirishga yordam bermoqda. Jumladan, O'zbekistonda bola huquqlari va erkinliklari, ularni ta'minlash va himoya qilish masalalari 100 dan ortiq qonunlar bilan tartibga solinishiga qaramay, 2008-yil 7-yanvar kuni, bu sohadagi maxsus qonun hisoblangan O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni kuchga kirdi.<sup>4</sup> Mazkur qonun O'zbekiston tarixida bola huquqlariga oid birinchi maxsus qonun bo'ldi.

Maqsadiga ko'ra, mazkur Qonun bolaning huquqiy ahvolini belgilashga doir munosabatlarni tartibga solishga, bola huquqlarini va erkinliklarini yuridik kafolatlashga qaratilgan. Unga binoan, bola huquqlari va manfaatlarini amalga tatbiq etilishini ta'minlaydigan kafolatlarni belgilash qonun bilan tartibga solinadigan asosiy obyekt hisoblanadi.<sup>5</sup> Bola huquqlariga oid xalqaro va milliy normalar mamlakatimizda bola huquqlariga oid davlat siyosatining shakllanishi uchun huquqiy zamin yaratdi. Mazkur siyosat bola huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish uchun samarali mexanizmni yaratishga qaratilgan davlat va mahalliy hokimiyat organlarining izchil olib borayotgan faoliyatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, bola huquqlarini ta'minlash va himoya qilish uchun zarur bo'lgan huquqiy va tashkiliy sharoitlar va kafolatlarni yaratish mamlakatimizda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Alohida qayd etish kerakki, bola huquqlari va erkinliklari mazkur huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan bo'lsa, ularni amalga oshirish bo'yicha mamlakatda keng ko'lamli amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan Prezident maktablari, ijod va Temurbeklar maktabi, ixtisoslashtirilgan maktablarning ochilishi yurtimizda bola tarbiyasi va ilm olish huquqi davlat siyosatining bosh masalasi sifatida hamisha e'tibordaligi diqqatga sazovordir. Mazkur masalaning dolzarbligi haqida: "Maktabgacha ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratayotganimiz bejiz emas, agar yoshlar

<sup>3</sup> Mo'minov A.R., Tillabayev M.A. Bola huquqlari: darslik / mas'ul muharrir A.H.Saidov. - T.: "Adliya" nashriyoti", 2014 y.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - T.:2008.

<sup>5</sup> Bola huquqlari monitoringi. O'quv qo'llanma /mas'ul muharrir A.H.Saidov. - T.: O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari milliy markazi, 2011 y.

tarbiyasiga bugundan e'tibor bermasak, ertaga kech bo'lishi mumkin" deb ta'kidlagandi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida.<sup>6</sup>

Yillar o'tgan sayin bola huquqlarini himoya qilishga bo'lgan e'tibor kuchayishi natijasida bugungi kunda bolalar Ombudsmani instituti tashkil etildi. Jumladan, bunday ombudsmanlik instituti Avstriya, Serbiya, Estoniya, Niderlandiya, Tojikiston, Rossiya, Boliviya, Belgiya va boshqa qator mamlakatlarda mavjud. Uning paydo bo'lishi asosan dunyo mamlakatlari Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilishgani bo'lsa, yana bir sabablardan bir dunyoda bolalarning ijtimoiy himoyalanganligidir. Masalan, Buyuk Britaniyada Bolalar Ombudsmani mustaqil institut bo'lib, ular hech bir davlat organ, hattoki Parlamentga ham bo'ysunmaydi. Bu kabi xalqaro tajriba mamlakatimizda unib o'sib kelayotgan bolalar huquqini himoya qilishda mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 apreldagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinbosari – Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi, shuningdek, 2020 yil 29 maydagi "Bola huquqlarini himoya qilishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni<sup>7</sup> bilan Bola huquqlari bo'yicha vakilning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari belgilab berildi.

Bolalar Ombudsmani avvalo bolalar huquqlari himoyasining parlament nazoratini ta'minlaydi. Voyaga yetmaganlarning yashash sharoitlari o'rganib, bolalarning individual shikoyatlari bo'yicha surishtiruv olib boradi, hamda mamlakatdagi mavjud bola huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar faoliyati bilan hamohang mazkur kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. E'tiborli tomoni bolalar Ombudsmani parlamentga doimo hisobot berib, O'zbekistonda davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan bolalarning huquqlarini himoyasi qanday amalga oshirilayotganini nazorat qilib boradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida bolalar ombudsmani to'g'risidagi qonunni qabul qilish tashabbusini bergan edi. Bular, albatta, bolalar huquqlarini himoya qilish borasidagi davlat siyosatining mantiqiy davomidir.<sup>8</sup> "Bolalar ombudsmani to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining maqsadi bola huquqlari bo'yicha Ombudsman institutini tashkil etish va uning faoliyati bilan bog'liq jamoatchilik bilan aloqalarni tartibga solish, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi va O'zbekiston Respublikasida bolalar va yoshlar huquqlari to'g'risidagi boshqa xalqaro hujjatlarning qoidalarini amalga oshirishga ko'maklashishdan iborat. Ko'pgina xorijiy mamlakatlarda Bolalar ombudsmani faoliyati maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi (Polsha - 2000 yil 6 yanvardagi "Bola huquqlari bo'yicha ombudsman

<sup>6</sup> <https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz>

<sup>7</sup> <https://lex.uz/docs/-4302023>

<sup>8</sup> <https://ombudsman.uz/oz/docs/ozbekiston-respublikasining-bolalar-ombudsmani-to'g'risidagi-qonunini-qabul-qilish-zarurligi-to'g'risida>

to'g'risida"gi qonun; Irlandiya - "Bolalar bo'yicha ombudsman to'g'risida" (2002); Fransiya - "Bola himoyachisi to'g'risida" 2000 yil 6 mart; Shvetsiya - 1993 yil 1 iyuldagi "Bolalar ombudsmani to'g'risida"gi qonun; Litva - 2000 yil 25 maydagi "Bola huquqlarini himoya qilish nazorati to'g'risida"gi qonun).<sup>9</sup>

Bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishning institutsional va huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish, bolalar orasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar sodir etilishining barvaqt oldini olish, nogironligi bo'lgan bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha keng jamoatchilik bilan o'tkazilgan muhokama natijalari, shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustda qabul qilingan "Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6275-sonli Farmoni<sup>10</sup> ham qabul qilinganligi quvonarlidir.

So'ngi yillarda mamlakatda bola huquqlari sohasida axborot-ma'rifat va ta'lim faoliyati sezilarli darajada faollashdi. Ma'rifiy faoliyat bola huquqlari bo'yicha xalqaro huquqiy hujjatlarni chop etish, ushbu mavzuga bag'ishlangan konferensiya, seminar va treninglar o'tkazishni qamrab oladi. Bundab tashqari bola huquqlariga oid ko'plab huquqiy adabiyot va qo'llanma kitoblar chop etildi. Bu esa mamlakatimizda bola huquqlariga oid huquqiy savodxonlikni oshirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan bir qatorda bola huquqlari mavzusi O'zbekistonda chop etilayotgan ko'pgina yuridik, iqtisodiy, pedagogik jurnal va gazetalarda ham yoritib kelinayotganini ta'kidlash joiz. Masalan, bola huquqlari masalasi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, Ombudsman instituti va O'zbekiston kasaba uyushmalari kengashi, "Ijtimoiy fikr" markazi tomonidan chop etib kelinayotgan "Demokratlashtirish va inson huquqlari", "Ijtimoiy fikr va inson huquqlari" jurnallari mualliflari uchun ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Har yili jurnal sonlaridan biri butunlay O'zbekistonda bola huquqlariga rioya qilish masalalariga bag'ishlanadi. "Bola va Zamin" ilmiy-ommabop jurnali esa, to'laligicha bolalar mavzusiga bag'ishlangan.<sup>11</sup> Bola huquqlariga oid xalqaro hujjatlar va milliy qonunchilikni o'rganish maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasbiy va oliy ta'lim muassasalari xodimlari, pedagoglar va tibbiyot xodimlari, jurnalistlar, huquqni muhofaza qilish tizimi xodimlari va sudyalalar malakasini oshirish tizimining o'quv dasturlariga kiritilgan.

Bugungi kunda yurtimizda bolalarni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy jihatdan himoya qilish bo'yicha juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizda bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha tegishli huquqiy baza

<sup>9</sup> <https://www.unicef.org/>

<sup>10</sup> <https://president.uz/oz/lists/view/973>

<sup>11</sup> Mo'minov A.R., Tillabayev M.A. Bola huquqlari: darslik / mas'ul muharrir A.H.Saidov. - T.: "Adliya" nashriyoti", 2014 y.

shakllangan desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, Jinoyat kodeksi va boshqa bir qator qonun hujjatlarida bolalar huquqlarini himoya qilishga oid normalar o'z ifodasini topgan. Bola huquqlarini himoya qilish sohasida qabul qilingan xalqaro majburiyatlarni bajarish uchun O'zbekiston xalqaro huquqiy normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish yo'lida katta ishlarni amalga oshirmoqda. Amaldagi qonunchilikda bolalarning huquq va manfaatlariga, shuningdek, ularning himoyasiga alohida e'tibor berilib, bu boradagi huquqiy asos yanada mustahkamlanmoqda.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya talablari hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlangan tegishli normalarga tayangan holda aytish mumkinki, bugungi O'zbekiston bolalari yangilanayotgan O'zbekistonning baxtiyor farzandlaridir. Chunki ularning barcha huquq va erkinliklarining huquqiy kafolati mavjud bo'lib, har bir bolaga davlat tomonidan alohida g'amxo'rlik va e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga munitsipal va aniq maqsadli kommunal uy-joy fondidagi o'zlari yashab turgan turar joylarni ular Mehribonlik uylari oila muhittiga mos ravishda ta'minlanmoqda, vasiylik yoki homiylik organining roziligiga ko'ra vasiylikka yoki homiylikka oluvchi bilan birga yashayotgan butun vaqt mobaynida, o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar ana shunday sharoitda tarbiyalanish huquqiga ega bo'lishgani tahsinga sazovrdir. Umuman, bugungi kunda O'zbekistonda bola huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha o'ziga xos milliy-huquqiy tizim shakllangan bo'lib, ayni paytda mamlakatimiz bu yo'lda dadil qadam tashlayotgan davlatlardan biridir.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda bolalar huquqini himoya qilishning zarur huquqiy bazasi yaratildi. Unga ko'ra, bola huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish mexanizmi ishlab chiqilib, davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining izchil olib borilayotgani faoliyatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois bola huquqlarini ta'minlash va himoya qilish uchun zarur bo'lgan huquqiy va tashkiliy sharoitlar va kafolatlar yaratish O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy-demokratik, ijtimoiy, dunyoviy davlat qurish farzandlarimizning faol ishtiroki, qo'llab-quvvatlashi orqaligina to'laqonli amalga oshar ekan, ma'naviyati yuksak, chuqur bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va professional tayyorgarlikka ega bo'lgan o'g'il-qizlarni tarbiyalash buyuk kelajagimizni ham ta'minlashiga shubha yo'q.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar (jami). - T.: "Adolat", 2004 y.

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2023 yil, – 80 b.
3. Mo'minov A.R, Tillabayev M.A. Bola huquqlari: darslik / mas'ul muharrir A.H.Saidov. - T.: “Adliya” nashriyoti”, 2014 y.
4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. - T.:2008.
5. Bola huquqlari monitoringi. O'quv qo'llanma /mas'ul muharrir A.H.Saidov. - T.: O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari milliy markazi, 2011 y.
6. <https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz>
7. <https://lex.uz/docs/-4302023>
8. <https://ombudsman.uz/oz/docs/ozbekiston-respublikasining-bolalar-ombudsmani-togrisidagi-qonunini-qabul-qilish-zarurligi-togrisida>
9. <https://www.unicef.org/>
10. <https://president.uz/oz/lists/view/973>
11. Mo'minov A.R, Tillabayev M.A. Bola huquqlari: darslik / mas'ul muharrir A.H.Saidov. - T.: “Adliya” nashriyoti”, 2014 y.